

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AXBOROTLAR BILAN
ISHLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH**

Raxmatova Dildora Saydullayevna

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'limning zamon talablari asosida rivojlanib borishi, ta'lim natijalarini baholashda o'zlashtirilgan axborotlar miqdori hisobga olinganligi, ta'lim jarayonida axborotlar bilan ishlash masalasini zamon talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish lozimligi bayon qilingan. Ta'lim o'quvchilarning axborot olish va qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish vazifasini uzluksiz bajarib boradi hamda ta'lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o'zlashtirilganlik darajasining oshishi, shuningdek axborotlardan foydalanish ko'lamining kengayishi ta'lim samaradorligini belgilashga xizmat qilishibayon qilingan.

Kalit so'zlar: Axborot bilan ishlash ,axborot-kommunikatsiya, axborotlarni qayta ishlash, mexanizmlar, axborotlarni o'zlashtirish, ong osti, qayta ishlash, axborot iste'molchisi.

Abstract. In this article, it is stated that the development of education is based on the requirements of the time, that the amount of acquired information is taken into account when evaluating the results of education, and the issue of working with information in the educational process should be continuously improved based on the requirements of the time. It is stated that education continuously fulfills the task of formation and development of students' information acquisition and processing skills, and the increase in the level of assimilation of information by students, as well as the expansion of the scope of information use, serves to determine the effectiveness of education.

Key words: working with information, information-communication, information processing, mechanisms, information assimilation, subconscious, processing, information consumer.

Абстрактный. В данной статье констатируется, что при развитии образования исходя из требований времени учитывается объем получаемой информации при оценке результатов образования, а также необходимость постоянного совершенствования вопроса работы с информацией в образовательный процесс, основанный на требованиях времени. Установлено, что образование непрерывно выполняет задачу формирования и развития у учащихся навыков получения и обработки информации, а повышение уровня усвоения информации обучающимися, а также расширение сферы использования информации служит определению эффективности образования.

Ключевые слова: Работа с информацией, информационно-коммуникация, обработка информации, механизмы, усвоение информации, подсознание, обработка, потребитель информации.

Kirish. Axborotlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, uni uzatish va qabul qilishning XXI asrdagi imkoniyatlari samarali ravishda o'sib bormoqda. Axborot maydoni fan va ijtimoiy hayot taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Ijtimoiy taraqqiyot barcha sohalar rivojlanishida aks etib boradi. Xususan, ta'lim sohasi ham ijtimoiy hayotning bir qismi sifatida doimiy ravishda ijtimoiy hayot yutuqlarini o'zida aks ettiradi.

Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritiladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursi [1].

Adabiyotlar taxlili. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida O'zbekiston respublikasida ta'limni rivojlantirishga axborotlar bilan ishlash ko'nikmasini

rivojlantirish ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan klaster subyektlarining o'zaro va o'z-o'zini rivojlantirishi sifatida asoslanadi, bu alohida ishtirokchilarning ham, umuman klasterlarning ham o'ziga xos afzalliklarini oshiradi. B.Abdullaeva, M.Toshpulatova, A.Sadikova, Y.Jabborova, N.Muxitdinova ta'limda axborotlar bilan ishlash ko'nikmasini resurslarini tashkil etishning integrativ tizimi deb hisoblashadi. Ta'lim sifatini barqaror rivojlantirish manfaatlarida litsey, universitet va ishlab chiqarishni integratsiyalash tizimini yaratish tajribasi V.L.Chudov, L.M.Perminova tomonidan umumlashtirildi. Ta'lim klasterlari modellarining bir xil tipologik tavsiflari M.Y.Baryshnikov, I.I.Chinnova, A.V.Simonovlar tomonidan taklif qilingan. Ilmiy-ta'lim klasteri L.V.Ovsienko, I.V.Zimina, N.N.Klintsovalarning tadqiqotlarida ijtimoiy sheriklik doirasida, jumladan, universitetlar, korxonalar, o'rta kasb-hunar ta'limi ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari doirasida tarmoq o'zaro hamkorligini amalga oshirish uchun eng istiqbolli tuzilma sifatida ko'rib chiqiladi. Axborot bilan ishlash – turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish jarayonlaridan iborat. F.M.Qo'chqorova tadqiqot ishlarida o'quvchida axborotlarni qayta ishlash ong osti mexanizmlarini faollashtirish hamda dalillarga asoslangan mantiqiy fikrlashni rivojlantirish komponentlari haqida ma'lumotlar batafsil berilgan. M.M.Vahobov fikricha “kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir”.

Tadqiqot metodologiyasi. Qadimgi Grek faylasufi Suqrot “o'qituvchining ijodkorligi, bu tayyor axborotni o'quvchiga yetkazishga emas, balkim, o'quvchilarni haqiqatga intilish, mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilganligidadir” deb ta'kidlagan. Ko'p holatlarda o'zlashtirilgan axborotlar miqdori (hajmi) ta'lim samarasi sifatida qaralib, ta'lim natijalarini baholashda o'zlashtirilgan axborotlar miqdori hisobga olinadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi o'zlashtirilgan axborotlarni tegishli sohalar hamda hayotiy faoliyatlar davomida qo'llay olish darajasi bilan belgilanadi. Bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarida

ham kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limda ta'limning natijasiga ahamiyat berilishi va bunda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar hajmi emas, balki turli vaziyatlarda mazkur axborotlarni qo'llay olishiga e'tibor qaratilishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan.

Axborot tushunchasiga ilmiy adabiyotlar, lug'atlarda turli ta'riflar keltirilgan. Masalan, predmet, dalil, voqea, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar, shu kabi obyektlar haqidagi bilim hamda tushunchalar, qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan va saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo'lgan jami dalil va ma'lumotlar, shuningdek, "axborot" (lot. information – tanishtirish, tushuntirish) – falsafada qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, kibernetikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, kengroq ma'no kasb etgan markaziy kategoriyalar sifatida maydonga chiqqan tushuncha sifatida ta'riflar keltirilgan.

Tahlil va natija. Axborot termini kishilik jamiyatining barcha jabhalarida qo'llaniladi va ular asosida ta'lim – tarbiya jarayoni olib boriladi hamda pedagogik faoliyat boshqariladi. Axborotlar jamiyat hayotida muayyan darajada ahamiyat kasb etib, xususan, ta'lim - tarbiya jarayonlarini boshqarishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi, chunki ular obyektidan olingan axborotlarni tizimlarga (qism tizimlarga) ajratish va qayta ishlash hamda kerakli maqsadlar bo'yicha uzatish algoritmlarini amalda joriy etishga keng imkoniyatlar yaratadi. Jahon sivilizatsiyasining axborot maydonida, jamiyatning har bir a'zosi, o'zining kundalik faoliyatida, uzluksiz ravishda axborotlardan foydalanadi. Ya'ni jamiyatning har bir a'zosi axborot iste'molchisi hisoblanadi. Axborot iste'molchisi o'z ehtiyojini qondirish bilimlarni oshirish, ta'lim olish va h.k.) maqsadida axborotga muhtoj, uni izlovchi va oluvchi shaxs va shaxslar. Demak, o'quvchilar ham axborot iste'molchilari hisoblanadi. Ta'lim jarayonida shu bilan birga, kundalik faoliyatlar davomida o'quvchilar axborotlarning faol iste'molchisi sifatida o'z o'quv faoliyati jarayonida zarur axborotlarni o'zlashtirib boradi. Axborot iste'molchilari sifatida o'quvchilarning axborot iste'moli madaniyatini tarbiyalash yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib ularda axborot iste'moli madaniyatining funksiyalariga alohida urg'u berib o'tilgan.

Axborotdan foydalanish ko'lamlari jamiyat rivojlanishi darajasini belgilaydi YUNESKO hulosasiga ko'ra, axborotlashtirish – bu axborotlarni to'plash, saqlash va uzatish vositalarining keng qo'llanilishidir. U mavjud bilimlarni tizimlashtirish va yangi bilimlarni shakllantirish hamda ularni joriy boshqarish, yanada takomillashtirish va rivojlantirish uchun qo'llashni ta'minlaydi.

Ta'lim o'quvchilarning axborot olish va qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish vazifasini uzluksiz bajarib boradi hamda ta'lim oluvchilar tomonidan axborotlarning o'zlashtirilganlik darajasining oshishi, axborotlardan foydalanish ko'lamining kengayishi ta'lim samaradorligini belgilashga xizmat qiladi.

Axborot bilan ishlash – turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish jarayonlaridan iborat. F.M.Qo'chqorova tadqiqot ishlarida o'quvchida axborotlarni qayta ishlash ong osti mexanizmlarini faollashtirish hamda dalillarga asoslangan mantiqiy fikrlashni rivojlantirish komponentlari bo'yicha o'quv materiallarini strukturalash va bloklarga ajratishga urg'u bergan. Axborotlardan samarali foydalanishning asosini axborotlar mazmuni va mohiyatini tushunish tashkil etadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot tushunchasini shakllantirish muhim hisoblanadi. Axborotlar mazmunini tushunish orqali darslarga qiziqish, yangi bilimlarni o'zlashtirib borishga intilish saqlanib qoladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga axborot atrof-muhit obyektlari, ularning o'lchamlari, xususiyatlari va holatlari, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar sifatida tushuntiriladi.

Ko'p hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilari axborotlarning asosiy mazmunini, keng doirada qo'llanadigan ma'nosini tushunadilar. Shuningdek, ularni atrofda real voqeliklar mazmunini aks ettirgan axborotlardan ko'ra to'qima obrazlar, hayoliy voqealar, mavhum tushunchalar mazmunini aks ettirgan axborotlar ko'proq jalb qiladi. Buning asosiy sababi shundaki, ular real voqea – hodisalar va predmetlarning asl mohiyatini tushunmaydi. Ularni o'quvchi o'z ongida aks ettira olmaydi. O'quvchi uchun ma'lum hayotiy qonuniyatlarga bo'ysunmaydigan, o'zlari tomonidan, yoki ular uchun to'qib chiqarilgan voqea-hodisalar ko'proq tushunarli. Shuning uchun axborotlarning tub mazmuni hamda ikkilamchi ma'nosi bilan

tanishtirib borish muhim.

O'quvchilarning axborotning muloqot jarayonini ta'minlashga xizmat qiluvchi funksiyani anglashlari muhim. Ta'lim jarayoni – bu avvalo axborot almashinish jarayonidir. O'qituvchi o'quvchiga tegishli axborot beradi va o'z navbatida teskari aloqa tarzida bayon qilingan axborotlar qanday o'zlashtirilganligi haqida tasavvur hosil qiladigan axborot oladi.

Katta yoshli insonlardan farqli ravishda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda axborotlar bilish jarayonlari (sezgi, idrok, tafakkur kabilar) ni, nutqining ravonligini, ziyraklik, sinchkovlik kabi xislatlarini rivojlantirishi bilan muhimdir. Haqiqatan ham, taraqqiy etib borayotgan axborotlar oqimi jamiyatida ijtimoiy rivojlanishning asosini an'anaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda insonlarning qobiliyati, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashishi, intellektual faoliyati, mustaqil ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi.

Xulosa. Ta'lim jarayonida axborotlar bilan ishlash masalasini zamon talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish lozimligini bugungi kun amaliyoti ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'limning talablari xususan, «mehnat bozoridagi dinamik o'zgarishlar, insonning nafaqat bilim va ko'nikmalari balki, shaxsiy fazilatlariga bo'lgan talablarning ortishi» kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltirdi hamda bir qancha olimlar tomonidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim muammolari o'rganilib, ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqildi. M.M.Vahobov fikricha “kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir”.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиqlаш тўғрисида» ги 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон Қарори // Ўзбекистон

2. Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. 14 (774)-сон, 230-модда // www.lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017. 6 (766)-сон, 70 модда // www.lex.uz.
4. Абдуллаева Б., Тошпулатова М., Садиқова А., Жабборовна Ю., Мухитдинова Н. Математика: ўқитувчилар учун методик қўлланма (1 синф).
5. Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». 2014. – 176 б.